

## AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA DINIY-MA'RIFIY MAVZULARNING BADIY TALQINI

**Abdinazarov Mansur**

*TAFU o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning hayoti haqida ma'lumot, Ahmad Yassaviy hikmatlarida diniy-ma'rifiy mavzularning badiiy talqini to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** hikmat, talqin, tasavvuf, payg'ambar, pand- nasihat, qanoat, rostgo'ylik.

**Annotation:** This article contains information about the life of Ahmed Yassavi, information about the artistic interpretation of religious and educational themes in Ahmad Yassavi's wisdom.

**Key words:** wisdom, interpretation, mysticism, prophet, advice, contentment, honesty.

**Аннотация:** В данной статье собраны сведения о жизни Ахмеда Яссави, сведения о художественной интерпретации религиозных и просветительских тем в мудрости Ахмада Яссави.

**Ключевые слова:** мудрость, толкование, мистика, пророк, совет, довольство, правдивость.

Turkiy xalqlar tarixda yuksak shon -shuhratga va munosib ma'naviy yetuklikka erishgan ulug' allomalari bilan bugun ulkan faxr hissini tuyadilar. Shunday ulug' allomalardan biri, buyuk tasavvufning mashhur namoyandasi, yirik tariqat asoschisi, shoir (Ahmad Yassaviy chig'atoy tilida ijod qilgan. "Devoni hikmat" shu tilda yaratilgan.), Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Turkiston mulkinging Shayx-ul mashoyixi" Ahmad Yassaviydir. Buyuk allomaning ajdodlari ham tariqat namoyondalari bo'lishgan. Jumladan, otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo'lgan. Ta'kidlash lozimki, Ahmad Yassaviy faqatgina yangi tariqat yaratuvchisi emas, hikmatnavislik an'nasini boshlab bergan turkiy tasavvuf she'riyatining birinchi ijodkori hisoblanadi.

Yasaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g'oyalarini omma ko'ngliga chuqur singdirish maqsadida she'riyatdan ham foydalangan. Abdurauf Fitratning ta'kidlashicha, Yasaviyning "adabiyotda tutgan yo'li sodda xalq shoirlarimizning tutg'on yo'lidir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she'rlar bilan barobar".



Yassaviy nuqtai nazarida hikmat — “ilmi laduniy”, ya’ni ilmi g’aybu haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf aylash mazmuniga ham ega. Yasaviyning o’zi “Devoni hikmat” nomi bilan biron bir kitob yaratmagan. Ushbu nodir asar uning murid va izdoshlari tomonidan tartib berilgan. Lekin bu narsa hikmat majmuasining Yasaviyga aloqasi yo’q, degan da’voni ilgari surishga asos bermaydi.

“Devoni hikmat”da ilohiy ishq va oshiqlik, ma’rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari nihoyatda samimiy va ta’sirli ohanglarda yoritib berilgan. “Devoni hikmat”dagi barcha she’rlar ham Yasaviyga mansub emas. Unga Yassaviy izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan. Bu esa, tabiiyki, hikmatlar tili va uslubida ma’lum o’zgarishlar hosil qilgan. Lekin Yassaviyning o’nlab izdoshlaridan hech biri ustozlari boshlagan g’oyaviy, axloqiy, ma’naviy ma’rifiy va mafkuraviy yo’nalishni o’zgartirmagan. Buni Yassaviy hayoti, tariqati va ijodiyotidan bahs yuritilgan o’nlab qadimiy manbalar, ayniqsa, Sulton Ahmad Haziniyning “Javohir ul-abror min amvojil bihor” asari ham to’la tasdiqlaydi.

Uzoq vaqt mobaynida Yasaviy hayoti va ijodiyotini ilmiy jihatdan tadqiq etishga imkon berilmadi. Asarlarini nashr qilishga yo’l qo’yilmadi. O’tgan asrning 70-yillarida Yasaviyning milliy madaniyat, til va adabiyot tarixidagi xizmatlarini to’g’ri baholash yo’lidagi urinishlar esa qoralandi. Mustaqillik arafasida, xususan, O’zbekiston istiqloлга erishgandan keyin yassaviyshunoslikda yangi davr boshlandi.

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta’limot bo’lib, islom olamida VIII asrning o’rtalarida paydo bo’lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko’rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrati Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning vafotlaridan keyin musulmonlar orasida bo’linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon zamonida boylikka ruju qo’yish, qarindosh-urug’lar, yaqin do’st-birodarlarni qimmatbaho tuhfalar bilan siylash rasm bo’ladi. Ummaviylar xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to’plash avj oldi. Ya’ni, diniy mashg’ulotlar, toat-ibodat o’rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo’ygan e’tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo’ldi. Ular orasida hadis to’plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo’lib, uy-joy, mol-mulkka e’tibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bu holat Xoja Ahmad Yassaviyning dunyoqarashini shakllantirgan ma’naviy ildizlardan birini tashkil qiladi. Chunki, uning muhim va ibratli xususiyatlaridan biri o’z-o’ziga tanqidiy qaray olishi, o’ziga murosasizligidir.

Ahmad Yassaviy o’zining diniy-falsafiy qarashlarida Qur’on va shariatga asoslangan. Taniqli olim I.Sulton Ahmad Yassaviy ta’limotining asosiy jihatlari haqida: “To’rt mavzu, yana ham to’g’rirog’i, to’rt maqsad Yassaviy merosining



asosini tashkil etadi. Bu mutafakkirning birinchi maqsadi – odamlarni Allohni tanishga, uning yaqini bo‘lishga da’vat etishdir. Ikkinchisi – dunyodagi gunohni, ayniqsa, adolatsizlikni qoralash, uchinchisi – adolatsizlik qurboni bo‘lgan insonni himoya qilish va adolatga da’vat etishdir. To‘rtinchi maqsadi – bu dunyoning dog‘larini insonga yuqtirmaslik uchun, uning gunohlaridan insonning tozaligini saqlash yo‘li yoki vositasi sifatida bu dunyodan nari turishga, ya’ni tarkidunyochilikka da’vat etishdir. Yassaviy ijodining boshqa g‘oyalari ham shu to‘rt mavzu, maqsad doirasidan uzoqqa ketmaydi”, deb yozadi [1:6].

Ahmad Yassaviy nuqtai nazariga ko‘ra, ayyorlik, gunohlarni yashirish o‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikri bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, o‘z-o‘ziga talabchanlikni targ‘ib qiladi. U: “Insonni eng og‘ir gunohlari uchun hatto tog‘u toshlar ham la’natlaydi”, deydi. Bu esa gunoh qilishdan, noqonuniy ishlarni bajarishdan, jamiyat a‘zolarining nafratiga qolishdan saqlanishga da’vatdir.

Shuning uchun xam Ahmad Yassaviy: “Ishq yo‘lida jon berganning armoni yo‘q”, der ekan [2:106], inson ma’naviy-ruhiy tozalanish uchun mashaqqatlarga bardosh berishi, halollikka, poklikka intilishi lozimligini quyidagi hikmatlar orqali ifodalaydi:

Jafo chekmay oshiq, bo‘lmas, tingla, g‘ofil,  
Jafo chekib sobir bo‘lg‘il, bo‘lma johil [2:94].

Bu bilan u, zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlari o‘quvchi shaxsini hushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o‘zini olib qochishga undaydi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Chunonchi:

Xudovando, meni solg‘il o‘z yo‘lingga,  
Nafs ilkida harib, ado bo‘ldim mano,  
Fisqu fujur to‘lib-toshib, haddan oshti,  
G‘arqob bo‘lib isyon ichra qoldim ma‘no [2:39].

Yassaviy “G‘arqob bo‘lib isyon ichra qoldim mano” deganda insonni haqiqat yo‘lida “nafs”dan qutulishga, o‘z nafsining quli bo‘lib qolmaslikka, atrofdagi yomon qarashlarning ta’siriga berilmaslikka chaqiradi. Bu esa o‘quvchilar va talabalarni turli ekstremistik oqimlarning ta’siridan saqlab qolishga da’vat qiluvchi qimmatli hikmatdir.

U yomonlik, nodonlik, jaholat, molparastlik, mansabparastlik illatlariga qarshi tura olishga chaqiradi. Jamiyat a‘zolarining manfaatlarini pisand qilmay mol-dunyo



to'plashga, mansabga intilayotgan ayrim kishilar uchun bu hikmatlarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

Yassaviy o'z she'rlariga hadislarni singdirib, ularni hikmatga aylantirdi. Yassaviya tariqati jahriya zikriga aylangan "G'iyosul lug'ot"da "Jahr – oshkor kardan va ovoz baland kardan dar xondan", ya'ni oshkor qilmoq va baland tovush bilan o'qimoqdir, deb aytilgan. Xuddi shu fikr "Devoni hikmat"da yozilgan:

Meni hikmatlarim xo'blarga ayting,  
Duo, takbir qilib rahmatga boting  
Agar hikmat o'qusa ayyuhannos,  
Erur farzand menga ul tolibi xos [2:198].

Bu misralar jahriya zikriga ishoradir. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining butun hayotini hikmatlar yozish bilan bir qatorda, qo'l mehnatiga ham bag'ishlagan. U chiviqdan suzgich to'qish, yog'ochdan qoshiq va cho'mich yasab sotish bilan tirikchilik qilgan [3:34]. Shuningdek, o'zining shogirdlariga ham ilm olish bilan birga, kasb-hunar egallab, hunarining orqasidan kun ko'rishini lozimligini uqtirgan.

Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari to'rt bob: "Daryoi shariat", "Rohi tariqat", "Qulzumi haqiqat", "Daryoi rahmat"dan iborat.

Shuni ta'kidlash joizki, Ahmad Yassaviyning dunyoqarashi borasida qizil imperiya davridagi islomshunoslar u bilan naqshbandiya tariqatini bir-biriga zid qo'yib: "Yassaviyda tarkidunyochilik, go'shanishinlik ustun bo'lib, naqshbandiyada esa qo'l mehnat bilan, dil Alloh bilan band, ya'ni dunyoni tark etmay yashash", deb talqin qilingan. Emishki, Yassaviyada tilanchilik qilish mumkin, Naqshbandiya esa bunga qarshi kurashgan. Bunday fikr noto'g'ri. Yassaviya tariqatida ham mehnat qilish farz, tekinxo'rlik gunoh sanalgan. Bu borada Xoja Ahmad Yassaviy bunday fikrni keltiradi: "Shayx uldurkim, niyoz olsa uni miskin, g'arib, bechora, yetim-yesirlarga bergan. Agar bu narzu niyozni yesa, go'yo murdor et yemishini tanovul qilgan bo'lur" [2:8]. Bugungi kunda yetim-yesirlarning haqqiga xiyonat qilayotganlar uchun bu hikmatlar katta ibratdir. Yassaviy so'fiylik g'oyalari, shuningdek, o'z tariqati asoslarini targ'ib etishda she'rlaridan foydalangan. Islom dini aqidalari va o'z asoslagan g'oyalarni she'riy tarzda bayon etish asosida keng omma orasiga kirib boradi. Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy asoslari to'g'ridan-to'g'ri "Qur'on" g'oyalari va payg'ambar Muhammad Alayhissalom hadislarini negizida shakllanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida payg'ambar Muhammad Alayhissalom ta'limotida ulug'langan ma'naviy-axloqiy xislatlar-muruvvat, saxovat, qanoat va rostgo'ylik targ'ib qilinadi, bildirilayotgan fikrlar kishilarni faqat Allohga tobe bo'lishga undaydi.





Uning hikmatlarida pand-nasihat asosiy o‘rin tutadi. Ularning barchasida so‘fiylik tariqatining amollari - haqiqatni bilish. Haqni sevish, nafsu dunyodan chekinishga da‘vat etuvchi g‘oyalar o‘z aksini topgandir. Inson ruhi va ongini har qanday illat, qabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina insonda axloqida ko‘zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi, degan fikrlar komil insonni shakllantirishning asosiy yo‘llaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Zero, tasavvuf-nafs lazzatlaridan voz kechishdir. Nafs – ochko‘zlik, o‘g‘rilik, jaholat, xudbinlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun qanoat Ahmad Yassaviyning hayotiy shiori sanaladi. Oziga qanoat qilish, shukronalik, halol luqma yeyish orqali inson Haq bilan “ko‘rishga” oladi, nafsga mute’ bo‘lganlar esa xudbinlikdan qaytmaydi, nafs balosiga uchraydi. Xususan:

Nafsdan kechib, qanoatni pasha qilg‘ on,  
Har kim topsa, rozi bo‘lib, bo‘yi sung‘ on  
Yaxshilarga xizmat qilib duo olg‘ on,  
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo‘q.  
Jondin kechmay hu-hu degan bari yolg‘ on,  
Bu gumrohdin so‘rmang savol, yo‘lda qolgan,

Haqni topgan o‘zi pinhon, so‘zi pinhon  
Ul sababdan oltmish uchda kirdim yerga.  
Banda bo‘lsang mehnat tortg‘ il g‘ ofil odam,  
Oqil ersang g‘ animatdur senga shul dam  
Omonatdir aziz joning yurma beg‘ am,  
Eshitib o‘qib yerga kirdi qul Xoja Ahmad.

Ahmad Yassaviy nodonlik tufayli hayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma‘naviy qashshoqlik, yovuzlik, takabburlik, nodon insonning eng tuban shaxs ekanligi, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma‘rifat bo‘lmagan o‘lkada mamlakatning inqirozga yuz tutishini alohida qayd etib o‘tadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida Haqqa yetish yo‘lini targ‘ ib qilar ekan, insonni jaholat botqog‘ idan xalos qilish lozimligiga urg‘ u beradi. U “Shariatda orif-biloh bo‘lishni, tariqatda voqif-asror bo‘lishni, haqiqatda komil-mukammal bo‘lishni, ma‘rifatda daryoi ummon bo‘lishni talab qiladi”.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Yassaviy tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar insonni yomon illat, nafs balosidan voz kechishga undaydi. Yomon illatlar va nafs balosidan xalos bo‘lish insonni ruhiy va jismoniy komillik sari yetaklaydi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. И Даккул, Амад Яссавий, Тошкент, Гафур Гулом, 2001
2. Okutman Sezai Gunesh, Dokuz Eylul Universitesi Otrak Zorlunlu derslar turk dili bo'lumi, Ahmet Yesevi ve Eseri Hakkinda, Buca Egitim fakultesi yanin organi, 1993
3. Ислам - энциклопедический словарь, Москва, Наука, 1991
4. Nadirhan HASAN, Arslan Bab ve Ahmed Yesevi, Tasavvuf ilmi ve akademik arastirma dergisi 24, 2009/2
5. Dārā Sukuḥ, Sefinetü'l-evliyā, Leknev, 1862
6. Hasan Hoca Nisāri, Müzekkir-i Ahbāb, Taskent Biruni Sarkiyyat Enstitüsü Ktp., nr. 4282, vr.
7. Fuat Köprülü, Türk Edebiyatında DlkMutasavvflar, Ankara: Diyanet Dsleri Baskanligi, 1991
8. Э.Рустамов, Ахмад Яссавий хикматларида тарих ва хаёт садоси, Узбек тили ва адабиёти журнали, 1972, № 4-5
9. A. Fitrat, Ahmad Yassaviy: Tanlangan asarlar (nashr. tayyorl. H. Boltaboyev), 2-jild, Тошкент, Ma'naviyat, 2000
10. А. Саъдий, Яссавий ким эди? (нашрга тайёрл. Б. Дусткораяев), Тошкент, 1994
11. I. Sulṭon. Bahouddin Naqshband abadiyati. –Т.: Fan, 1994.
12. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. –Т.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1992.
13. Z. F. Mirtursunov. O'zbek xalq pedogogikasi. –Т.: 1973.

